



**POLICY ON
GUARANTEERING EQUAL
RIGHTS OF WORKERS AT
TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**



The policy on guaranteeing equal rights of workers at Tashkent State University of Law aims to ensure a fair and inclusive work environment for all employees, regardless of gender, age, ethnicity, or background.

[click here for more information](#)

It focuses on providing equal opportunities in hiring, promotion, and professional development while safeguarding against discrimination and harassment in the workplace. Additionally, the policy supports the right of workers to express concerns and participate in decision-making processes, promoting a culture of transparency and respect.

[click here for more information](#)

A Supplier Code of Conduct for procurement outlines the ethical standards and principles that suppliers are expected to follow when engaging with an organization.

XV. IJTIMOYIY SHERIKLIK. KASABA UYUSHMASI FAOLIYATINING KAFOLATLARIGA RIOYA ETILISHI

15.1. Taraflar o'zaro munosabatlarida O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, mehnat to'g'risidagi, kasaba uyushmalari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari hamda ijtimoiy sheriklik, hamkorlik, o'zaro manfaatlarni hurmat qilish tamoyillariga amal qiladi.

15.2. Kasaba uyushmasi qo'mitasi Ish beruvchi bilan jamoa muzokaralarini olib borishda va jamoa shartnomasini tuzishda ustuvor huquqqa ega, uning bajarilishi yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

15.3. Ish beruvchi Kasaba uyushmasi qo'mitasining huquqlarini e'tirof etgan holda uning faoliyatiga har tomonlama ko'maklashadi.

15.4. Universitetda Kasaba uyushmasi qo'mitasi xodimlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi yagona vakillik organi sifatida tan olinadi.

15.5. Ish beruvchi xodimlarning yagona vakillik organi sifatida Kasaba uyushmasi qo'mitasini tan oladi va:

xodimlarning yozma arizalari asosida ish haqidagi kamida bir foiz miqdoridagi kasaba uyushmasi a'zolik badallari universitet buxgalteriyasi orqali ushlab qolinishini va pul o'tkazish yo'li bilan o'z vaqtida va to'liq miqdorda, byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga majburiy to'lovlarni to'lash bilan bir vaqtda Kasaba uyushmasi qo'mitasi hisob raqamiga o'tkazilishini;

a'zolik badallari bir oy muddatdan ortiq vaqt mobaynida o'tkazilmagan taqdirda aybdor mansabdor shaxsga nisbatan intizomiy chora ko'rilishi kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2012-yil 15-martda 2342-raqam bilan ro'xatga olingan Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank hisob varaqlaridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga binoan universitet hisob varag'ida mablag' yetarli bo'lmagan hollarda kasaba uyushmasiga a'zolik badallari ijro to'lov hujjatlari bo'yicha proporsiya asosida hisobdan chiqariladigan mablag'lar qatoriga kiritiladi.

15.6. Ish beruvchi:

a) jamoa shartnomasiga kirmagan muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishdan oldin Kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan oldindan kelishib olish;

b) Kasaba uyushmasi qo'mitasi talab qilganda unga mehnat hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq masalalar yuzasidan ma'lumotlar taqdim etish;

v) Kasaba uyushmasi qo'mitasining Ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun uni xonalar, tashkiliy-texnika, aloqa vositalari, kanselyariya mollari bilan bepul ta'minlash majburiyatlarini oladi.

15.7. Kasaba uyushmasi qo'mitasi:

a) universitetning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish dasturlarini bajarilishiga ko'maklashish, bu borada xodimlar tashabbusi va ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;

b) qo'llanilayotgan mehnatga haq to'lash tizimi, ish haqi to'lanishi, jamoa Shartnomasi bo'yicha qo'shimcha to'lovlar berilishi to'g'riligini, shuningdek mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi sharoitlarini yaxshilash bo'yicha tadbirlar bajarilishini nazorat qilish;

v) mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish, xodimlar huquqiy savodxonligini yuksaltirishga ko'maklashish;

g) kasaba uyushmasi a'zolarining mehnat huquqini himoya qilish;

d) xodimlar va ularning oila a'zolarini dam olishi va Sog'lig'ini saqlash maqsadida xodimlarning arizalari asosida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi tomonidan tasdiqlangan me'yorlar doirasida tegishli sog'lomlashtirish maskanlariga yo'llanmalar bilan arzonlashtirilgan narxda ta'minlash;

e) universitetda mehnat va ishlab chiqarish sharoitlari ahvoli ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil qilish va amalga oshirish;

j) kasaba uyushmasi a'zolari orasida mehnat va ishlab chiqarish intizomini mustahkamlashga qaratilgan tushuntirish va tashkiliy ishlarni olib borish, kelishmovchilik va nizolarga olib keluvchi vaziyatlarni oldini olishga qaratilgan choralar ko'rish;

z) turli tanlovlar, sport musobaqalari g'oliblarini taqdirlash uchun rag'batlantiruvchi sovg'alar va mukofotlar ta'xis etish;

i) O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining "Ishonch", "Ishonch-Doverie" gazetalariga obunani ta'minlash ishlarini amalga oshiradi.

[click here for more information](#)

It includes guidelines related to compliance with labor laws, environmental responsibility, and the prohibition of child labor, forced labor, and human trafficking. Additionally, the code emphasizes fair business practices, transparency, and adherence to high-quality standards in all products and services provided, ensuring a sustainable and responsible supply chain.